

25 - F012

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**



"TASDIQLAYMAN"

Buxoro davlat universiteti rektori

O.X.Xamidov

2021 y. 11 "11"

**ORKESTR SINFI (XALQ CHOLG'ULARI ORKESTRI)
FAN DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar
Ta'lim sohasi:	150000 – San'at
Ta'lim yo'nalishi:	5150700 – Cholg'u ijrochiligi (xalq cholg'ulari)

Fan/ modul kodi ORS1144		O'quv yili 2021-2022	Semestr 1-8	Kreditlar 44
Fan/ modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4-7
	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama
1.	Orkestr sinfi (xalq cholg'ulari orkestri)	630	690	1320
2.	I. Fanning mazmuni Orkestr sinfi fani ko'p ovozli cholg'u simfonik orkestr, o'zbek xalq cholg'ulari orkestri, damli cholg'ular orkestri, estrada cholg'ulari orkestri yoki ansambllar uchun yuqori malakali sozanda ijrochilarni tayyorlashga asoslanadi. Orkestr sinfi ijrochilarning ko'p jihatdan takomil tarzda voyaga yetishida muhim rol o'ynaydi, xususan nafaqat mohir ijrochi, balki keng dunyoqarashga ega sozanda ijrochi bo'lishida o'z o'rniga ega bo'ladi. Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarda san'at sohasida faoliyat olib boradigan turli tarkibdagi orkestrlarda mohir sozanda-ijrochilik yo'nalishi bo'yicha Davlat ta'lim standartlariga asoslangan holda mos bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir. Fanning vazifasi talabalarga orkestr badiiy jamoalarida ijodiy faoliyat olib borish, madaniyat va san'at ta'lim muassasalarida malakali sozandaijrochilarni tarbiyalashga o'rgatishdan iborat. Orkestr sinfi fani bo'yicha o'qitish jarayonida quyidagilar amalga oshiriladi: - cholg'u musiqasini, o'zbek va jahon kompozitorlari ijodiga xos katta va kichik shakllardagi turli janrlardagi musiqiy asarlarni jamoaviy ijrochilik qoidalarini uyg'unlashtirgan holda yuqori darajada bajarish; - cholg'uda yuksak ijrochilik texnika san'atini mukammal va chuqur o'zlashtirish - cholg'uni avaylash, asrash va hamisha soz xolatida saqlash. - jamoaviy ijrochilikda bir-birini yeshitish qobiliyatini yanada izchillik bilan oshirish Fanning vazifalari, musiqiy meroslarni tinglab cholg'ularning tuzilishi, sozlanishi, diapazoni, badiiy va texnik imkoniyatlari, rang-barang ijro usullari haqida aniq tasavvurga yega bo'lishlari zarur. Faqat xalq cholg'u va ulardan tuzilgan			

orkestrlarning o'rganish bilan chegaralanmay, balki birinchi darslikdanoq turli orkestrlar, butun dunyoga keng tarqalgan boshqa cholg'ular haqida ham kerakli bilimlarni olishlari talab yetiladi.

II. Asosiy amaliy qism (amaliy)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1- modul. O'zbek xalq cholg'ulari orkestri va kop ovozli asambllarning ijodiy jarayonlari va o'ziga hos hususiyatlari

Orkestr va ansambllarining fan sifatida o'rni. Orkestr va ansambllarining ahamiyati. Fanni o'rgatishdagi yangi pedagogik texnologiyalar hozirgi kun talabi - talabalarga bilim berishni tushuntirish, uqtirish, bayon qilish orqali amalga oshirish bilan bir qatorda ko'proq ularning bilim olishga bo'lgan talab va ehtiyojlarini o'stirish hamda ularning mustaqil bilim olishlariga imkoniyat yaratib berishni nazarda tutmoq zarurligini taqozo qiladi.

O'zbek xalq cholg'ulari tarixidan qisqacha ma'lumotlar. Ularning paydo bo'lishi qadim-qadim davrlarga borib taqalishi, ma'lumotlarga qaraganda, dastlabki musiqa cholg'ulari eramizdan avvalgi 8-asrda rivoj topgan, deb taxmin qilinishi. Zamonaviy amaliyotida qo'llanilayotgan cholg'u ijrochilik haqida. O'zbek xalq cholg'ulari orkestri va uning partituras, ijrochilik imkoniyatlari rivojlanib, repertuarining asta-sekin boyib borishida xizmatlari singan musiqa san'ati arboblari haqida. Shu orkestr uchun partitura ko'rinishining shakllanishi haqida.

2- Modul. Notani o'qish mahorati

Notani o'qish mahoratini o'stirish. Talabalarda mustaqil ravishda mashg'ulotlar olib borish ko'nikmalarini o'rgatish, ijro dasturini shakllantirishga yordam berish va o'zlashtirilgan - notalarni varoqdan ravon o'qish, nota matnini aniq, tekis, savodli va yerkini ijro yetish. Umumiy musiqiy-nazariy bilim doirasini yanada kengaytirish. Jamoaviy ijrochilikka xos bo'lgan 2-3 ta mashqlar, 4-5 ta har xil xarakter uslubidagi asarlarni ijro yetish. Har bir talabaning ijrochilik imkoniyatiga, musiqiy qobiliyatiga, musiqiy bilim doirasiga tayangan holda oddiydan murakkabgacha bo'lgan ijro dasturini to'g'ri tanlashga alohida yehtibor berish kerak.

3- modul. Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talabalarda mustaqil ravishda orkestr mashg'ulotlari olib borish ko'nikmalarini shakllantirish. Tayyorlangan ijro dasturini targ'ib yetishga imkoniyat yaratish. Ijodiy izlanishlarga keng yo'l ochish. Professional badiiy jamoalar tarkibida ishtirok etishni amaliy yo'lga qo'yish. Badiiy didni rivojlantirish. Asarlar mazmunini chuqur his qilish. Kuylarning janri, shakli

to'g'risida to'la ma'lumotlarga ega bo'lish.

Ko'rsatma va fikrlariga ko'r-ko'rona ergashib bo'ysunishi emas, balki biron masala yuzasidan o'zining shaxsiy munosabatini ijro orqali bildirib olishi kerak. Talabani mustaqil mashg'ulotlarida orkestrni tashkil yetish metodikasi san'atiga ong'li munosabati yetakchi vazifani o'taydi. Cholg'uda ijroni o'rganish jarayonida yaxshi yo'lga qo'yilgan, muntazam ravishda amalga oshiriladigan uy mashg'ulotlarining ahamiyati juda kattadir. Bunda mashg'ulotlar davomida o'quvchi mehatga bo'lgan ong'li munosabat shalalana boradi. Ba'zi o'qituvchilar o'z o'quvchilariga keragidan ortiq xomiylik ko'rsatib, ularni mustaqil mehnat qilishlariga xalaqit beradilar. Aksincha, o'quvchilarning mustaqil mehnat qilishlari uchun qanchalik erta imkoniyat yaratilsa, uning natijasi shunchalik tez ko'zga tashlanadi:

-talaba mustaqil ishini tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlari hisobga olgan holda quydagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi;

-darslik va o'quv qullanmalar fan boblari va mavzularini o'rgatish;

-tarqatma materiallar bo'yicha mahruzalar qismini o'zgartirish;

-maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;

-yangi texnikalarni apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarini o'rganish;

-talabani o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzulari chuqur o'rgatish;

Orkestr uchun yaratilgan asarlar janri xilma-xilligi haqida o'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun ijod qilishda yoki cholg'ulashtirishda e'tiborda bo'lishi zarur bo'lgan xususiyatlari

Mustaqil ishlar talabalar tomonidan mustaqil ijro shakli sifatida tashkil yetiladi. Musiqiy kontsert dasturlari, teatr va sahna asarlarini kuzatish shakllari orqali o'rganilayotgan asarlar ustida ish olib boriladi.

Har bir asar mustaqil holda audio, CD, DVD disklardagi ijrolardan foydalangan holda o'rganiladi.

4- modul. Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti

Mazkur fanni o'zlashtirishda ta'limning zamonaviy metodlari (xususan, interfaol), pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ijodiy o'quv jarayonida unumli qo'llaniladi. Axborot-resurs markazlari kompyuterlari, "Internet". "Ziyonet" kabi axborot resurs tarmoqlari, maxsus Veb-saytlar sahifalaridan unumli foydalanish. fonoteka va videoteka jamg'armasidan, repetitoriylardan o'quv laboratoriyalari. Ovoz yozuvi studiyalari, teleradiokompaniya kanallari va kontsert zallaridan, maxsus o'quv adabiyotlari - darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy qo'llanma, metodik tavsiyalar, nota grafikasi yuzasidan amaliy kompyuter dasturlaridan keng foydalanish nazarda tutiladi.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Orkestr sinfi" faniga kirish.
2. Nota o'qish mahorati
3. Orkestr ijrosida ansamblga erishish.
4. Orkestr guruhlaridagi shtrixlar to'g'ri ijrosiga erishish.
5. Orkestr mashg'ulotlarini tashkillashtirish.
6. Asarda - tovush, ohang, garmoniya, polifoniya.
7. Orkestrda ohanglar yo'nalishlarini aniqlash
8. Orkestr bilan amaliy mashg'ulotlar olib borish M.Liviev musiqasi, N. Ibragimov cholg'ulashtirgan "Yulduz qo'shig'i", A.Petrov instr. K.Urinbayeva "Avtomobildan saqlaning" kinofilmidan VALS, T.Azimov "Durdona".
9. Konsert jarayoniga tayyorgarlik.

Ushbu fan bo'yicha amaliy (guruhli) mashg'ulotlar olib borilishi nazarda tutiladi. Bu nazariy o'rganilgan bilimlarni, amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlab borishga yordam beradi. Xususan, amaliy mashg'ulotlarda har bir mavzu yuzasidan yangi talqinlarda ijro etib ko'rish, har bir talabaning individual xarakteridan kelib chiqib berilgan musiqiy asarni mustahkamlash yaxshi natija beradi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'zbekiston va jahon zamonaviy kompozitorlari asarlari bilan tanishtirish
2. Jo'mavozlik mahoratini oshirish.
3. Yirik shakldagi asarlarni o'rganish.

Mustaqil ta'limni tashkil etishda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

-darslik, o'quv qo'llanma, maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;
-tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
-avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
-talabaning ilmiy tekshirish (ijodiy) ishlarini (TITI) bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularini chuqur o'rganish.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni axborot-ta'lim resurslaridan ta'lim muassasasida mavjud kutubxona, fonoteka va videoteka jamg'armasidan repetitoriylardan, o'quv laboratoriyalari, ovoz yozuvi studiyalari, bajarilgan ishlarning tahlilini bayon etishdan iboratdir. Mazkur fanning xususiyatlaridan kelib chiqib kasbiy mahoratni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni maqsadli amalga oshirish ham nazarda tutiladi.

3.	V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) • Orkestr sinfining rivojlanish tarixi hamda zamonaviy musiqa madaniyati; orkestr ijrochiligi san'atiga oid asosiy ma'lumotlar, mashhur orkestrlarning ijodiy faoliyati va manbaalar <i>haqida tasavvurga ega bo'lish</i>; • Orkestrda o'tirish holati va ijro etish madaniyati, musiqiy oqimlar (klassitsizm, romantizm va h.k.); O'zbekiston va jahon kompozitorlari ijodiyotining yo'nalishlari va janrlari, uslublarini <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>; • Orkestr guruhlar bilan ishlash; asar partiyalarini o'zlashtirish; asami ijrochilik nuqtai-nazaridan talqin etish; O'zbekiston zamonaviy musiqasidagi jarayonlarni tahlil etish va tanqidiy baholash <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • Amaliy mashg'ulotlar; • Audio va video yozuvlardan foydalanish; • Mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar; • Nota o'qish mahorati; • Konsert taqdimotlarni qilish; • Individual loyihalar, • Jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VII. Kreditlari olish uchun talablar: Fanga oid amaliy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha imtihonni topshirish.
6.	VIII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari Asosiy adabiyotlar 1. Umarov Sh. Dirijyorlik. O'quv-qo'llanma. T., 2016. 2. Abdurahimova F., U.Yunusov. Orkestr sinfi. O'quv-qo'llanma. T., 2016. 3. Abdurahimova F. Orkestr sinfi. O'quv-qo'llanma. T., 2012. 4. Haqnazarov Z. Dirijyorlik haqida. O'quv-qo'llanma. T., 2012 5. Heimep B. Ichxono p kupovahu. VYeHoe nocoóne. T., 2010. 6. Turli mualliflar, simfonik, damli va kamer orkestrlar uchun badiiy asarlar 1600-2018. (partitura va cholg'ularning partiyalar) 7. Имамов У.З. Оркестр синфи -Тошкент. 2017 8. Abduraximova F.R. Orkestr sinfi. -Toshkent. 2012

9. Асабин А. М. Методика педагогического руководства художественно-творческим коллективом: Учеб. пособие. - Челябинск, 2004.
10. D.Yu. Ruziyev. "Orkestr ijrochiligi" o'quv qo'llanma. -Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2020. - 204 b.

Qo'shimcha adabiyotlar


- 1.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: O'zbekiston", 2017. - 488 b.
- 2.Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatasining qo'shma majlisidagi nutq. -T.: "O'zbekiston", 2017. - 32 b.
- 3.Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlashyurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016-yil 7-dekabr. T.: O'zbekiston. NMIU, 2017.32.
- 4.2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi. (elektron versiyasi)
- 5.www.lex.uz - O'zbekisto Respublikasi Qonun hujjatlati ma'lumotlari milliy bazasi.

Internet saytlari


- 1.<http://www.ziynet.uz>
- 2.<http://b2c.uz/catalog/youth/uz/musika>
- 3.[www:// musika uz](http://www.musika.uz)
- 4.<http://portasound.ru/music-search/musika-olami>
- 5.<http://notes.tarakanov.net>
- 6.<http://www.classicalmusiclinks.ru>

7. Fan dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021- yil 16- iyuldagi 311-son buyrugining 8-ilovasiga muvofiq Buxoro Davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti Musiqa ta'limi kafedrasida ishlab chiqildi.

Fan/modul uchun mas'ullar:

8. O.I.Karimov  BuxDU "Musiqa ta'limi" kafedراس dotsenti

Taqrizchilar:

9. S.D.Do'stov  BuxDU "Musiqa ta'limi" kafedراس professori, p.f.n.
D.Yu.Ro'ziyev  BuxDU "Musiqa ta'limi" kafedراس dotsenti, p.f.n.



